

PUDRAT SHARTNOMASI № 8

28 10

2022 yil

Paxtaobod tumani

Ushbu pudrat shartnomasi «Buyurtmachi» deb ataluvchi Paxtaobod tuman MAKTABGACHA TA'LIM BO'LIMI uning nomidan nizom asosida ish olib boruvchi raxbari **S.Abdullayeva** bir tomondan va «Pudratchi» deb ataluvchi «2020 Mega Stroy» MCHJ uning nomidan Nizom asosida ish olib boruvchi rahbari **M.Komiljonov** ikkinchi tomondan binoni joriy ta'mirlash ishlariga doir pudrat shartnomasini tuzdilar ushbu xaqida:

1. Shartnomaning mavzusi

1.1. «Pudratchi» mazkur shartnoma shartlariga muvofiq «Buyurtmachi» ning Paxtabod tuman maktabgacha ta'limi bo'limi tasarrufidagi 22-maktabgacha ta'lim binosini defektniy akt va smeta xujjalariha hamda 22.10.2022 yil kungi № 22110012164359 lotga asosan binoni eshik, derazalarni almashtitish va fasad qisimlarini tamirlash ishlarini bajarib beradi.

2. Shartnomaning bahosi va hisob-kitob tartibi

2.1. Bajarilishi lozim bo'lgan ishlar «Buyurtmachi» tomonidan tasdiqlangan loyixa smeta asosida to'liq bajaradi va pudrat ishlarining umumiyligi qiymati **193 000 000** (Bir yuz to'qson uch million) so'mni tashkil etib ta'mirlash ishlarini 30 kun mobaynida sifatli qilib bajarib beradi.

2.2. Bajariladigan ishlar qiymati uzil kesil hisoblanib, faqatgina ishlar hajmi buyurtmachi tomonidan o'zgartirilganidan va fors major holatlari sabab bo'lganida qayta ko'rib chiqilib, tomonlar o'rtasida qo'shimcha bitim bilan rasmiylashtiriladi.

2.3. Shartnoma tomonlar o'rtasida imzolanib, tegishli G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingandan so'ng 5 bank ish kunida «Buyurtmachi» bajariladigan ishlar umumiyligi qiymatining 30 foizini **57 900 000** (Ellik yetti million to'qqiz yuz ming) so'mni, oldindan avans tariqasida «Pudratchi»ning hisob raqamiga o'tkazib beradi.

2.4. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ya'ni **135 100 000** (bir yuz o'ttiz besh million bir yuz ming) so'mni «Pudratchi» tomonidan bajarilgan ishlar dalolatnomasi (F-3) asosida o'tkazib beradi.

2.5. «Buyurtmachi» oxirgi to'lovni «Pudratchi» tomonidan ish to'liq bajarib topshirilib, qabul qilish – topshirish dalolatnomasi (F-3) va bajarilgan ishlar qiymatlari to'g'risidagi ma'lumotnomalar asosida o'tkazib beradi.

2.6. Bajarilgan ishlar uchun to'lovlarning qolgan 70 foizi, ya'ni **135 100 000** (bir yuz o'ttiz besh million bir yuz ming) so'mni «Pudratchi» tomonidan pul o'tkazish yo'li bilan amalga oshiriladi.

3. Tomonlarning huquq va majburiyatları.

3.1. «Pudratchi»ning majburiyatları

Shartnoma imzolanganidan so'ng ish bajarilgan obektni «Buyurtmachi»dan dalolatnomaga (F-2) asosan qabul qilib oladi. Mazkur shartnomada ilova qilinadigan loyiha smeta xujjaliga muvofiq birinchi avans to'lovi amalga oshirilgandan boshlab 5 kun muddat ichida ishlarni bajarishga kirishadi. Barcha ishlarni tasdiqlangan smeta xujjalariha muvofiq mazkur

shartnomada nazarda tutilgan hajmda va muddatlarda o‘zining kuchlari bilan bajarish xamda «Buyurtmachi»ga mazkur shartnoma shartlariga muvofiq topshiradi.

3.2. «Pudratchi»ning huquqlari

Bajarib berilgan ish uchun oldindan avans haq to‘lanishi va ishni bajarib topshirgandan so‘ng to‘la hajmda xisob-kitob qilinishini talab qilish;

Bajarib berilgan ishni qabul qilib olish asossiz ravishda rad etilishi natijasida yetkazilgan zararni qoplashini talab qilish;

3.3. «Buyurtmachi» ning majburiyatları

Tasdiqlangan smeta bo‘yicha bajarilgan ishlarni qabul qilib olish;

Bajarilgan ishlarni uchun o‘z vaqtida haq to‘lash;

3.4. «Buyurtmachi»ning huquqlari

«Pudratchi»dan amaldagi davlat standartlariga va boshqa me‘yoriy xujjatlar bilan ta‘minlashni talab qilish;

Kamchiliklarni bepul bartaraf etilishi yoki kamchiliklarni boshqa shaxs tomonidan to‘g‘rilanishi xarajatlarini qoplanishini talab qilish;

«Pudratchi»dan shartnomada ko‘rsatilgan ishlarni qabul qilish kommissiyasi ishtirokida smeta hujjatlari asosida ishni sifatli bajargan holda qabul qilib olish;

«Pudratchi» tomonidan ishlatiladigan materiallar va asbob uskunalarni shartnoma shartlariga va ish hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilish:

4. Tomonlarning javobgarligi.

O‘zbekiston Respublikasining xo‘jalik yurituvchi subyektlarni faoliyatni shartnomaviy huquqiy bazasi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga asosan belgilanadi.

4.1.Tomonlardan biri shartnoma majburiyatini bajarmasa yoki zarur darajada bajarmasa majburiyatni bajarmagan tomon ikkinchi tomonga yetkazilgan zararni to‘laydi;

4.2. «Pudratchi» ob‘ektni o‘z vaqtida toprishmaganligi uchun «Buyurtmachi»ga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnoma majburiyatları bajarilmagan qismining 0.5 foiz miqdorida penya to‘laydi. To‘lanadigan jarima summasi bajarilmagan majburiyatlar bahosining 50 foizidan oshmasligi kerak.

4.3.Aniqlangan nuqson va kamchiliklar «Pudratchi» tomonidan o‘z vaqtida bartaraf qilinmasa «Buyurtmachi» to‘lovlar to‘xtatiladi. Lozim darajada bajarilmagan ishlarning 20 foizi miqdorida «Pudratchi» jarima to‘laydi.

4.4.Bajarilgan ishlarni uchun «Buyurtmachi» tomonidan o‘z vaqtida haq to‘lanmasa, har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to‘lov summasining 0.4 foizi miqdorida penya to‘laydi. To‘lanadigan jarimaning umumiy summasi kechiktirilgan to‘lovlarining 50 foiz miqdoridan ortmasligi kerak.

4.5. To‘lanadigan jarimalar shartnoma majburiyatlarini buzgan tarafni ikkinchi tarafga ana shu majburiyatlarini bajarmaslik oqibatida yetkazilgan zararni qoplash javobgarligidan ozod etmaydi.

5. Fors major holatlar.

5.1. Ushbu shartnoma bo'yicha majburiyatlarni to'liq yoki qisman bajarilmasligi tabiat xodisalari va boshqa yengib bo'lmaydigan kuch holatlari natijasida kelib chiqsa va bu xolatlar shartnoma shartlarini bajarilishiga bevosita ta'sir etsa tomonlarning javobgarlikdan ozod etilishi Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.

6. Shartnomani o'zgartirish, bekor qilish va nizolarni hal qilish tartibi

6.1. Mazkur shartnoma belgilangan shaklda tomonlarning o'zaro kelishuviga muvofiq o'zgartirilishi va bekor qilinishi mumkin.

6.2. Mazkur shartnoma bo'yicha yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizo va kelishmovchiliklar o'zaro muhokama yo'li bilan hal etiladi. Agarda o'zaro muhokama yo'li bilan hal etish imkonni bo'lmassa Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda Iqtisod sudi orqali hal etiladi.

7. Shartnomaning amal qilish muddati

7.1. Shartnoma tomonlar muhri bilan imzolanib, xududiy G'aznachilik bo'limidan ro'yxatga olingan kundan kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amal qiladi.

7.2. Shartnoma 2 nusxada tuzilib, ikkala nusxasi ham huquqiy jihatdan teng kuchli hisoblanadi.

8. Tomonlarning rekvizitlari

«Pudratchi»

Nomi: «2020 Mega Stroy »M.Ch.J

Manzili: Andijon shaxar Zarbdor ko'chasi
9 uy

Bank nomi: Infinbank Andijon shaxar
X/r: 20208000605194476001
MFO: 01114
STIR (INN): 307 222 311

XXTK (OKONX):

Raxbar: 
M.Komiljonov
M.O'.
MEGA STROY
STIR:307222311

«Buyurtmachi»

Nomi: Paxtaobod tuman Maktabgacha ta'lim
bo'limi

Manzili: Paxtaobod tuman A.Temur
ko'chasi

SHXR:100022860032327091100251029

STIR (INN):305 157 124


XXTK (OKONX): 92400

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi
G'aznachiligi

X/R:2340 2000 3001 0000 1010

INN:201122919 МФО:00014

Banki: Markaziy bank XQQM

Raxbar: 
S.Abdullayeva
imzo
M.O'.



**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY XULOSA**

WD3074270563

1. Loyihaning turi : Shartnoma
2. Loyihaning nomi: **Pudrat shartnomasi.**
3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Paxtaobod tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 26.10.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Paxtaobod tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:



B.R.SATTAROV

28.10.2022